maqsetleri óz-ara bekkem baylanıslı bolıp, olar insannıń jeke jáne social rawajlanıwında zárúrli rol oynaydı. Mádeniy dem alıwdıń tiykarǵı wazıypalarınan biri bul, mádeniy dem alıw processinde insanlardıń estetikalıq talǵamın rawajlandırıw, olardıń mádeniy miyraslarǵa bolǵan qızıǵıwshılıǵın asırıw menen birge olardıń jámiyettegi belsendiligin asırıwǵa járdem beredi.

**Paydalanılǵan ádebiyatlar**

1. Маврулов М. Ўзбекистон маданияти тарихи. Shafoat Nur fayz нашриёти. Тошкент - 2025 йил.475 б.
2. Вильчинская-Бутенко М.Э. Корпоративный досуг как элемент социокультурного сервиса в концепциях индивидуального восприятия // Теория и практика сервиса: экономика, социальная сфера, технологии. - 2011. - № 1. - С. 38-46
3. Головина Г. В. Культура досуга и культурное формирование личности // Вестник Московского государственного университета культуры и искусств. – 2011. – №. 1. – С. 103-108.
4. Sayfullayev B. S., Rustamov V. K. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 180 b.
5. G.A.Saparbaeva,P.Q.Paluaniyazov. Mádeniy ilajlar.-Tashkent: “Fan ziyosi”, 2022.-80 b.
6. Qoraboyev U. Badiiy ommaviy tadbirlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 1986. – 59 b.

**РЕЗЮМЕ.** Mádeniy dem alıwdıń ilimiy-teoriyalıq tiykarları, mádeniy dem alıw iskerliginiń úyreniw basqıshları hám ámeldegi jaǵdayı úyrenilip shıǵılǵan. Mádeniy dem alıwdı shólkemlestiriwde mádeniyat mákemeleriniń is usıllarınıń ózgeshelikleri úyreniledi.

**РЕЗЮМЕ.** Изучены научно-теоретические основы культурного досуга, этапы изучения и текущее состояние культурно-досуговой деятельности. При организации культурного досуга изучаются особенности методов работы учреждений культуры.n

**SUMMARY.** The scientific and theoretical foundations of cultural leisure, the stages of its study, and the current state of cultural leisure activities have been studied. When organizing cultural leisure activities, the specific working methods of cultural institutions are studied.

## MADANIY MEROS YODGORLIKLARIDA DO‘MBIRA CHOLG‘USI

**Saydaliyev Yusufxon Aslanovich –** *dotsent*
*O‘zbekiston davlat konservatoriyasi*

**Tayanch so‘zlar:** do‘mbira, torli cholg‘ular, madaniy meros, O‘rta Osiyo musiqasi, arxeologik topilmalar, miniatyura san'ati, etnomusikologiya.

**Ключевые слова:** домбра, струнные инструменты, культурное наследие, музыка Средней Азии, археологические находки, искусство миниатюры, этномузыкология.

**Key words:** dombra, string instruments, cultural heritage, Central Asian music, archaeological findings, miniature art, ethnomusicology.

**KIRISH.** Musiqiy cholg‘ular madaniyatning eng qadimgi va eng muhim komponentlaridan biri bo‘lib, xalqlarning tarixiy rivojlanishi, estetik qarashlari va ijtimoiy hayotini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. O‘zbek xalqining boy musiqiy merosida do‘mbira torli cholg‘ulari alohida o‘rin tutadi. Do‘mbira (dombra, dumbra, dombyra) - ikki torli, parda-panjali torli cholg‘u bo‘lib, ming yillar davomida O‘rta Osiyo, Qozog‘iston va qo‘shni hududlar xalqlarining musiqiy madaniyatida muhim rol o‘ynagan.

Torli cholg‘ular qadim zamonlardan shakllanib, turli xalqlar amaliyotida o‘z ma'naviyati va an’anasi doirasida rivoj topib kelgan musiqiy cholg‘ulardan bir turi hisoblanadi. Torli cholg‘uning kelib chiqishiga aniq bir ma'lumot berish mushkul. O‘tmish manbalarida keltirilgan rivoyatlarga ko‘ra, birinchi kashf etilgan torli cholg‘uning nomi Barbat bo‘lgan va ilk bor buyuk yunon olimi Fisog‘urs (Pifagor) tomonidan ixtiro etilganligi qayd etiladi. [1.] U oddiy bo‘lgan va keyinchalik rivojlangan. Bu haqda maqomshunos olim I.Rajabov yozadi: “Fisog‘ursdan so‘nggi davrlarda yashagan musiqachilar barbatni takomillashtiradilar va uning asosida 2 - 3 - 4 torli musiqa cholg‘ulari yasadilar. Barbatni esa, ko‘p manba'larda hamma torli cholg‘ularning yuzaga kelishida asos bo‘lgan,

deb ko‘rsatiladi”. [2.B. 18.] Barbat esa udsimon cholg‘u ekanligi va ud cholg‘usini yasashda Barbat asos bo‘lganligi ham ko‘p manba'larda bayon etilgan.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqotning dolzarbligi madaniy merosni saqlash va o‘rganishning zamonaviy talablari bilan bog‘liq. YuNESKO tomonidan moddiy bo‘lmagan madaniy meros ro‘yxatiga kiritilgan O‘rta Osiyo musiqiy an'analari ichida do‘mbira cholg‘usi va unga oid ijrochilik an'analari alohida ahamiyatga ega.

Tadqiqot davomida tarixiy-taqqoslash - turli davrlarga oid manbalarni solishtirish; ikonografik tahlil - madaniy yodgorliklardagi badiiy tasvirlarni o‘rganish;, etnografik yondashuv - xalq musiqiy an'analarini tahlil qilish;, organologik tahlil - cholg‘u konstruksiyasi va akustik xususiyatlarini tadqiq etish kabi metodlar qo‘llanilgan.

Arxeologik qazishmalar natijasida O‘rta Osiyo hududlarida torli cholg‘ularning qadimiy namunalari topilgan. Akademik Y.Rajabiy va V.M.Belyayev tadqiqotlariga ko‘ra, torli cholg‘ular miloddan avvalgi II-I ming yilliklardayoq mavjud bo‘lgan. “Musiqada cholg‘u cholg‘ular, tajribadagi amaliy izlanishlar natijasi va umumlashmasi degan qarashlardan kelib chiqqan holda Farobiy musulmon olamining mumtoz sozlari bo‘lmish ud, tanbur, rubob, qonun, arganun (organ),nay, surnay va boshqalarning ilmiy tavsifini bergan. Olimlar Kurd Zaks va Erix Xoribostellarning fikricha, cholg‘ushunoslik (organologiya) faniga Farobiy asos solgan. Musiqa haqidagi katta kitobida musiqashunoslik tarixida birinchi bor cholg‘u sozlarining ilmiy tasnifoti bayon etilgan” [3.B.272.]

Varaxsha va Afrosiyob qadimiy shaharlari devoridagi freskalar (VII-VIII asrlar) torli cholg‘u chalayotgan musiqachilar tasvirlarini o‘z ichiga oladi. Bu tasvirlarda do‘mbiraga o‘xshash cholg‘ularning dastlabki shakllari kuzatiladi.

Do‘mbira haqida qimmatli ma'lumotlar Forobiy (873-950) ning “Kitab al-musiqi al-kabir” (“Musiqaning katta kitob”) asarida uchraydi. Forobiy torli cholg‘ularni klassifikatsiya qilib, ularning akustik xususiyatlarini ilmiy jihatdan tavsiflagan.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA.** Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad al-Foro‘biy o‘z asarlarida torli cholg‘ularning turlari, sozlash va ijro texnikasi haqida batafsil ma'lumotlar bergan. Uning ta’limotlari O‘rta Osiyo musiqashunosligining poydevori hisoblanadi.

Mahmud Koshg‘ariy (XI asr) “Devonu lug‘otit turk” asarida turkiy xalqlar musiqiy cholg‘ulari, jumladan do‘mbira haqida qimmatli etnolingvistik ma'lumotlar keltirgan (Koshg‘ariy, 1960-1963).

XV-XVI asrlarda yaratilgan miniatyura san'ati asarlari O‘rta Osiyo musiqiy madaniyatini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Kamol ad-Din Behzod va uning maktabi vakillarining asarlarida saroy musiqachilarining do‘mbira chalayotgan lahzalari tasvirlangan. Behzod miniatyuralarida (1450-1535) musiqiy majlislar, saroy bayramlari va ziyofatlar tasvirlari uchraydi. Bu asarlarda musiqachilarning qo‘lida turli xil torli cholg‘ular, shu jumladan do‘mbiraga o‘xshash cholg‘ular tasvirlangan.

Miniatyuralarda do‘mbira quyidagi elementlar bilan tasvirlangan:

- Uzun bo‘yin qismi;
- Noksimon korpus;
- Ikki tor;
- Ushlash va chalish texnikasi.

Do‘mbiraning organologik xususiyatlari quyidagilarda ko‘rinadi:

Do‘mbira quyidagi asosiy qismlardan iborat:

1. Korpus (gövde) - yog‘och materialdan yasalgan, rezonatorlik vazifasini bajaradi;
2. Bo‘yin (sapı) - pardali yoki pardasiz bo‘lishi mumkin;
3. Kallak (baş) - torlarni sozlash mexanizmi joylashgan;
4. Torlar - an'anaviy ravishda hayvon ichakidan yoki simdan yasalgan;
5. Köprü - korpus ustiga o‘rnatilib, torlarni ko‘taradi.

Akustik xususiyatlarida do‘mbiraning ovoz diapazonı va tembr xususiyatlari uning o‘ziga xos konstruksiyasi bilan belgilanadi. T.S.Vyzgo tadqiqotlariga ko‘ra, do‘mbira vokal musiqaga jo‘rlanish uchun ideal cholg‘u hisoblanadi. [4.]

O‘rta Osiyo xalqlarida do‘mbira turli nomlarda tanilgan:

- Qozog‘istonda: dombra
- Qirg‘izistonda: komuz
- Turkmanistonda: dutar (ikki torli)
- O‘zbekistonda: do‘mbira, dumbrak

**XULOSA.** Xulosa o‘rnida aytish kerakki, hozirgi davrda do‘mbira ijrochilik an’analari saqlanib qolgan. O‘zbekiston Respublikasining Madaniyat vazirligi huzuridagi Milliy musiqiy meros markazi do‘mbira repertuarini to‘plash va tiklash ishlarini olib bormoqda. Zamonaviy o‘zbek musiqashunoslari tomonidan do‘mbiraning tarixiy rivojlanishi, ijrochilik maktablari va pedagogik masalalari bo‘yicha ilmiy ishlar olib borilgan. 2009-yilda Qozog‘iston dombra an'analari YuNESKOning Moddiy bo‘lmagan

madaniy meros ro‘yxatiga kiritildi. Bu boshqa O‘rta Osiyo davlatlari uchun ham o‘z musiqiy meroslarini saqlashga turtki bo‘ldi. Do‘mbira cholg‘usi O‘rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi va eng muhim musiqiy cholg‘ularidan biri bo‘lib, uning tarixi ming yillar orqasiga borib taqaladi. Madaniy meros yodgorliklari - arxeologik topilmalar, miniatyura san'ati, yozma manbalar do‘mbiraning tarixiy rivojlanishi va madaniy ahamiyatini tadqiq qilishda muhim manba hisoblanadi.

Do‘mbira nafaqat musiqiy cholg‘u, balki xalq psixologiyasi, estetik qarashlari va ijtimoiy hayotining aks ettiruvchisi sifatida muhim etnomadaniy qiymatga ega. Zamonaviy sharoitda do‘mbira ijrochilik an'analarini saqlash, ilmiy jihatdan o‘rganish va keyingi avlodlarga etkazish milliy madaniy merosni asrashning muhim yo‘nalishi hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Fisog‘urs - yunoncha ismi Pifagor. Eramizdan oldingi VI asrda yashab ijod etgan buyuk faylasuf alloma. Musiqiy cholg'ular yaratilishiga bog'liq rivoyatlar (I.Rajabovning “Maqomlar masalasiga doir” kitobida, musiqada 7 ta tovush mujassamligi borasida A.Navoiyning “Lison ut-tayr” kitobidagi “Qaqnus” hikoyasida keltiradi.
2. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir -T.: Fan, 1963.
3. Matyoqubov O. Maqomat -T.: Musiqa, 2004.
4. Визго Т. Музыкалные инструменты Среднеи Азии (O‘rta Osiyoning musiqiy cholg‘ulari). Москва: Музыка, 1980.

**REZYUME.** Ushbu maqolada O‘zbekiston madaniy merosi yodgorliklarida do‘mbira cholg‘usining tarixiy rivojlanishi, badiiy tasvirlari va etnomusikologik ahamiyati tahlil qilingan. Arxeologik topilmalar, miniatyura san'ati va yozma manbalar asosida do‘mbiraning qadimiy turar joy hududlari, ijtimoiy-madaniy funksiyalari hamda O‘rta Osiyo xalqlari musiqiy madaniyatidagi o‘rni tadqiq etilgan.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье анализируются историческое развитие, художественные образы и этномузыкологическое значение домбры в памятниках культурного наследия Узбекистана. На основе археологических находок, миниатюрного искусства и письменных источников исследуются древние ареалы распространения домбры, её социально-культурные функции и роль в музыкальной культуре народов Средней Азии.

**SUMMARY.** This article analyzes the historical development, artistic representations, and ethnomusicological significance of the *dombra* in the cultural heritage monuments of Uzbekistan. Based on archaeological findings, miniature art, and written sources, the study explores the ancient regions of the dombra’s distribution, its socio-cultural functions, and its role in the musical culture of the peoples of Central Asia.

## SÚWRETLEW ÓNERI SABAQLARÍN INNOVACIYALÍQ TEXNOLOGIYALAR TIYKARÍNDA SHÓLKEMLESTIRIWDIN NÁTIYJELILIGI

**G.Smaylova** – *docent*
*Qaraqalpaqstan Respublikası Pedagogikalıq sheberlik orayı*

**Tayanch so‘zlar:** tasviriy san’at, innovatsion texnologiyalar, kreativ fikrlash, estetik tarbiya, interfaol metodlar, 4K modeli, STEAM yondashuvi, raqamli texnologiyalar, ijodiy fikrlash.

**Ключевые слова:** изобразительное искусство, инновационные технологии, креативное мышление, эстетическое воспитание, интерактивные методы, модель 4К, подход STEAM, цифровые технологии, творческое мышление.

**Key words**: visual arts, innovative technologies, creative thinking, aesthetic education, interactive methods, 4K model, STEAM approach, digital technologies, artistic creativity.

Ulıwma orta bilim beriwde súwretlew óneri páni oqıwshılardıń dóretiwshilik pikirlewi hám estetikalıq dúnya qarasın qáliplestiriwde áhmiyetli orın tutadı. Búgingi kúnde dúnya kóleminde kórkem óner bilimlendiriwi ayrıqsha áhmiyetke iye bolıp, bilimlendiriwdiń sapası hám oqıwshılardıń dóretiwshilik kompetenciyasın rawajlandırıwdıń ajıralmas bólegine aylanǵan. Kórkem óner tálimi oqıwshılarda emocionallıq intellekt, dóretiwshilik hám sın kózqarastan pikirlewdi rawajlandıradı, olardıń abadanlıǵı hám akademiyalıq nátiyjelerin jaqsılaydı.